

**TALABALARNI INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHGA
KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH****Olimov Temir Hasanovich***Osiyo xalqaro universiteti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Magistr: Zakirova Madina**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi (J. Dewey, K. Rogers), konstruktivizm (L. Vygotskiy, J. Bruner), kompetensiyaviy yondashuv (O. Tolipov, Sh. Sharipov) va faol o'qitish texnologiyalari nazariyasi asosida nazariy va empirik izlanishlar olib borildi. Empirik tadqiqotlar talabalarning interfaol metodlarni qo'llashdagi dastlabki ko'nikmalari yetarli emasligini, tajriba-sinov ishlari esa ishlab chiqilgan metodik model yordamida bu ko'nikmalarni sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari interfaol metodlarning talabalarda mustaqil fikrlash, metodik refleksiya, jamoaviy hamkorlik, pedagogik muammolarni hal etish va amaliy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik model pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Interfaol texnologiyalar, kasbiy-metodik tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik innovatsiyalar, metodik model, faol ta'lim.*

**IMPROVING STUDENTS' PROFESSIONAL-METHODICAL PREPAREDNESS
FOR TEACHING BASED ON INTERACTIVE TECHNOLOGIES**

Abstract: *This article presents a scientific analysis of improving students' professional-methodical preparedness for teaching using interactive technologies. The study is based on theoretical and empirical research grounded in the concepts of student-centered education (J. Dewey, K. Rogers), constructivism (L. Vygotsky, J. Bruner), competency-based approaches (O. Tolipov, Sh. Sharipov), and active learning technologies. Empirical studies revealed that students' initial skills in applying interactive methods were insufficient, while experimental work demonstrated that these skills could be significantly enhanced using the developed methodological model. The findings confirm that interactive methods effectively foster students' independent thinking, methodological reflection, teamwork, problem-solving, and readiness for practical pedagogical activity. Moreover, the developed methodological model creates opportunities to enhance professional-methodical training of future teachers and improve the quality of education in pedagogical higher education institutions.*

Keywords: *Interactive technologies, professional-methodical preparedness, future teacher, competency-based approach, pedagogical innovations, methodological model, active learning.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В статье представлен научный анализ совершенствования профессионально-методической подготовки студентов к обучению с использованием интерактивных технологий. Исследование основано на теоретических и эмпирических данных, полученных с опорой на концепции ориентированного на личность обучения (J. Dewey, K. Rogers), конструивизма (L. Vygotsky, J. Bruner), компетентностного подхода (O. Tolipov, Sh. Sharipov) и активных методов обучения. Эмпирические исследования показали, что первоначальные навыки студентов в применении интерактивных методов недостаточны, тогда как экспериментальная работа продемонстрировала, что эти навыки можно значительно улучшить с использованием разработанной методической модели. Результаты исследования подтверждают, что интерактивные методы эффективно способствуют развитию у студентов самостоятельного мышления, методической рефлексии, командного взаимодействия, решения педагогических задач и готовности к практической педагогической деятельности. Кроме того, разработанная методическая модель создаёт возможности для повышения профессионально-методической подготовки будущих педагогов и улучшения качества образования в педагогических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Интерактивные технологии, профессионально-методическая подготовка, будущий педагог, компетентностный подход, педагогические инновации, методическая модель, активное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan va o'z kasbiy faoliyatida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanadigan bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga raqamli innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda integrativ metodlar chuqur kirib kelayotgani o'qituvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki metodik mahoratning yuqori darajasini ham talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari talabaning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar majmuasini tashkil etadi. "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Case-study", "Debat", "Klaster", "INSERT", "Jigsaw", "B/B/B" kabi texnologiyalar o'qitish jarayonini mazmunan boyitadi, talabaning o'quv-bilish motivatsiyasini oshiradi va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlarni samarali qo'llash o'qituvchidan chuqur metodik tayyorgarlik,

dars jarayonini puxta loyihalash va o'quv materiali mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi.

Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning interfaol texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kasbiy refleksiya, pedagogik tafakkuri va innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'limning kompetensiyaviy modeliga o'tish sharoitida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligi va professional identifikatsiyasini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, mazkur tadqiqot talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini oshirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va didaktik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy innovatsion ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirilgan samarali modelni ishlab chiqish vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda interfaol texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida talqin etiladi. J. Dewey, K. Rogers va P. Freire ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi, o'quvchi faol ishtirokchi bo'lgan jarayonning samaradorligi hamda bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallanishi interfaol metodlarning nazariy poydevorini shakllantiradi. Ularning g'oyalari talabaning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va muammoga innovatsion yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar – N. Azizxo'jayev, B. Ziyomuhamedov, O. Tolipov va Sh. Sharipov interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari hamda kompetensiyaviy yondashuvning o'рни haqida ilmiy asoslangan ma'lumot beradi. Ayniqsa O. Tolipov va Sh. Sharipov tomonidan taklif etilgan kompetensiyaviy yondashuv modeli bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy usullarini belgilaydi va interfaol texnologiyalar orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, metodik tayyorgarligini rivojlantirish hamda pedagogik refleksiya ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar – R. Slavin, S. Johnson, M. Fullan va D. Laurillard interfaol texnologiyalarni hamkorlikda o'qitish, konstruktivizm, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va virtual muhitlarda ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy qarashlarni kengaytirgan. Ularning ishlari AR/VR texnologiyalar, simulyatorlar va multimediali resurslar yordamida talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interfaol texnologiyalar talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim bo'lsa-da, mavjud tadqiqotlarda ularni o'quv jarayoniga kompleks integratsiya qilish, metodik modellarni ishlab chiqish va baholash mezonlarini yaratish yetarlicha ishlanmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot interfaol texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va faol o'qitish texnologiyalari konsepsiyalari tashkil etadi. Nazariy metodlar (ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalarni tahlil qilish), empirik metodlar (kuzatish, suhbat, intervyu, anketalash va mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazish),

eksperimental metodlar (tajriba-sinov ishlari va nazorat-guruh solishtirishlari) hamda statistik metodlar (matematik-statistik qayta ishlash va natijalarni baholash) kompleks qo'llanilishi tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash, metodik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini tasdiqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari interfaol texnologiyalarni maqsadli va tizimli integratsiya qilish talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Boshlang'ich diagnostik tahlil talabalarning interfaol metodlar bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalari yetarli emasligini, ayniqsa darsni loyihalash va muammoli vaziyatlarni boshqarishda bo'shliqlar mavjudligini aniqladi.

Tajriba davomida ishlab chiqilgan metodik model kompetensiyalarning rivojlanishida ijobiy dinamikani yuzaga keltirdi. "Aqliy hujum", "Jigsaw", "Debat", "Case-study" kabi metodlarni muntazam qo'llash talabalarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, jamoada ishlash va pedagogik muammolarga kreativ yechim topish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Tajriba guruhidagi kompetensiyalar nazorat guruhiga nisbatan 22–27% gacha o'sdi, ayniqsa metodik loyihalash, dars senariylari tuzish va interfaol metodlarni tanlash ko'nikmalari eng yuqori darajada rivojlandi.

Talabalarda metodik refleksiya, darsni tanqidiy tahlil qilish, o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish ko'nikmalari shakllandi. Jamoaviy hamkorlik kompetensiyalari oshdi, bu esa bo'lajak o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan kommunikativ va tashkiliy ko'nikmalarni mustahkamladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari interfaol texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi. Dastlabki diagnostika bosqichida talabalar interfaol metodlarning nazariy mazmuni va ularni qo'llash shartlarini yetarlicha anglamaganligi aniqlangan bo'lsa, tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan metodik model talabalarning faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minladi.

Interfaol metodlar talabalarning pedagogik refleksiya, darsni mantiqiy tahlil qilish, murakkab vaziyatlarga yechim topish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli rivojlantirdi. Shu bilan birga, interfaol texnologiyalar o'quv jarayonini demokratlashtiradi, talabalar o'z fikrini erkin bayon qilish, alternativ qarashlarni taqqoslash va jamoaviy ijodiy hamkorlik qilish imkoniga ega bo'ldi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlarni samarali qo'llash pedagogik tayyorgarlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liq va pedagogik oliy ta'lim muassasalarida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy-metodik tayyorlash zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Interfaol metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, kasbiy refleksiya, kommunikativ ko'nikmalar, amaliy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik va innovatsion muammolarni hal qilish kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Metodik tajribalar interfaol texnologiyalarni tizimli joriy etish pedagogik tayyorgarlikning samaradorligini 25–30% oshirishi va talabalarda o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuv, darsni rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlashini tasdiqladi. Shu bilan birga, interfaol metodlardan kompleks foydalanish talabalarning nazariy bilimlarni tezroq o'zlashtirishiga, amaliy mashg'ulotlar sifatining oshishiga, o'quv motivatsiyasining kuchayishiga va mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojining ortishiga olib keldi.

Ushbu ilmiy izlanishlar interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirish pedagogik ta'limning dolzarb vazifalaridan biri ekanini tasdiqlaydi va pedagog kadrlarni tayyorlashda yangi texnologiyalarni integratsiya qilish, ta'lim jarayonini insonparvarlash va talabaning kasbiy shakllanishiga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
2. Rogers, C. (1969). *Freedom to Learn*. Columbus: Merrill.
3. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Continuum.
4. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Slavin, R.E. (1995). *Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice*. Boston: Allyn & Bacon.
7. Johnson, D., & Johnson, R. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365–379.
8. Fullan, M. (2013). *Stratosphere: Integrating Technology, Pedagogy, and Change Knowledge*. Toronto: Pearson.
9. Laurillard, D. (2012). *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. Routledge.
10. Azizxo'jayev, N. (2015). *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar*. Toshkent: O'zbekiston.
11. Ziyomuhamedov, B. (2017). *Innovatsion ta'lim metodlari: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
12. Tolipov, O., & Sharipov, Sh. (2018). *Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariy va amaliy asoslar*. Toshkent: Universitet nashriyoti.